

INGLIZ VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA LOKAL QADRIYATLAR SEMANTIKASI

O‘qituvchi Bo‘riyeva Shahnoza G‘ofur qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Xorijiy til va adabiyoti kafedrası

Annotatsiya:

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek maqollarida ifodalangan lokal va global qadriyatlarning semantic xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqollar xalqning dunyoqarashi, madaniy merosi va ijtimoiy qadriyatlarini yorituvchi muhim til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz maqollarida individualism, pragmatizm va erkinlik g‘oyasi yetakchi o‘rin tutsa, o‘zbek maqollarida jamoaviylik, hamjihatlik va an‘anaviy qadriyatlar ustuvorligi kuzatiladi.. Tadqiqotda maqollarning lingvistik va madaniy qiyosiy tahlili orqali ular orasidagi umumiy (global) va milliy (lokal) semantik jihatlar aniqlanadi. Shuningdek, maqollarda aks etgan qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liqligi izohlanadi. Olingan natijalar madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjimashunoslik hamda tilshunoslikning qiyosiy tadqiqotlariga amaliy hissa qo‘shishi mumkin.

Kalit so‘zlar: maqol, semantika, qadriyatlar, lokal qadriyatlar, qiyosiy tahlil, madaniyatlararo kommunikatsiya.

Maqollar har bir xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va ma‘naviy qadriyatlarini ifodalovchi eng qadimiy janrlardan biri hisoblanadi. Har bir millatning maqollarida uning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy xususiyatlari mujassam bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek maqollarini qiyosiy o‘rganish orqali ikki xalqning mahalliy qadriyatlari qanday semantic mazmun kasb etishini anglash mumkin.

Semantika tilshunoslikning so‘z va til birliklarining ma‘no tamoni o‘rganuvchi sohasi hisoblannadi. Semantika termini yunon tilidagi *semantikos* – ma‘noli, izohli so‘zidan kelib chiqqan. Semantika tilda qo‘llanadigan so‘z, ibora, jumla va boshqa birliklarning qanday ma‘no anglatishini, ularning mazmuniy munosabatlarini tadqiq etadi. Semantikaning tadqiqot obyekti so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosi, ko‘chma ma‘nosi, sinonim, antonim, omonim kabi ma‘no munosabatlarini, jumla va matn darajasidagi mazmuniy tuzilishni, ma‘no o‘zgarishi va uning tarixiy rivojlanishi kabilar tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

So‘z va iboralarning saosiy va qo‘shimcha ma‘nolarini anglash, til birliklarining ma‘no tizimini o‘rganish, ma‘nodagi o‘zgarishlarning sabablari va qonuniyatlarini tushuntirish, turli tillardagi semantik o‘xshashlik va farqlarni qiyoslash semantikaning vazifalari hisoblanadi.

Qadriyat jamiyat va inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan, ijtimoiy, ma‘naviy, madaniy yoki shaxsiy jihatdan qadrlı bo‘lgan tushunchalar, g‘oyalar va tamoyillar majmui

hisoblanadi. Qadriyatlar insonlarning qarashlari, xulq-atvori va turmush tarziga bevosita ta'sir qiladi. Universallik, nisbiylik, barqarorlik va o'zgaruvchanlik, mezonlik kabi tushunchalar qadriyatning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Lokal qadriyatlar muayyan xalq, millat yoki hududga xos bo'lgan o'sha jamiyatning tarixiy tajribasi, urf-odati, diniy qarashlari va turmush tarzidan kelib chiqqan qadriyatlar tizimidir. Ular umuminsoniy qadriyatlar kabi keng doirada emas, balki ma'lum bir hudud yoki milliy madaniyat doirasida amal qiladi. Masalan, o'zbek xalqida nonning muqaddasligi yoki mehmonnavozlik qadriyat sifatida qaralishi lokal xususiyat kasb etsa, ingliz jamiyatida vaqtni tejash yoki shaxsiy erkinlikni qadrlash lokal qadriyat hisoblanadi. Lokal qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi ma'naviy tayanch vazifasini bajaribgina qolmay, milliy o'zlik va identitetni shakllantiradiva avlodlar o'rtasida tarbiyaviy ko'priq hisoblanadi.

All are not saints that go to the church (Cherkovga borganlarning hammasi avliyo bo'lavermaydi), o'zb.: *Eshak makkaga borgani bilan hoji bo'lmas* maqoli ingliz va o'zbek xalqi hayotidagi muhim qadriyatlarni va insonlarning haqiqiy tabiatini ochib beradi. Bu maqolda ahamiyat qatadigan jihatimiz shundaki, ingliz xalqi ibodat uchun cherkovga borishi o'zbek xalqi esa ibodat uchun isloniy farzini ado etish uchun makkaga borishi ahamiyatga molik hisoblanadi. Maqol ma'nosida esa faqat cherkovga, makkaga borish yoki diniy amallarni bajarish orqali insonning qandaydir yuksak axloqiy sifatlariga ega ekani tog'risida xato fikr mavjudligini ko'rsatadi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, tashqi ko'rinish yoki ijtimoiy konformizm bilan birga, ichki yaxshilikni ham hisobga olish kerakligi tushuniladi. Har kim o'zining ichki tabiatiga ega. Ushbu nmaqolda insonlarning jamoatga ta'sir etadigan faoliyatlari yoki tashqi muhitda o'zlarini qanday tutishidan qat'iy nazar, ularning ichki niyatlari, xatti-harakatlari haqida fikr yuritadi.

Choose a wife rather by your ear than your eye (Xotinni ko'zing bilan emas, qulog'ing bilan tanla), o'zb.: *Onasi maqtagan qizni olma, el maqtagan qizni ol*. Ingliz xalqi qadriyatida xotinni tashqi ko'rinishi bilan emas, balki so'zlari, odobi, xulqi, qobiliyati va qadriyatlariga qarab tanlash ma'qul degan tushuncha mavjud. O'zbek xalqida esa ushbu maqol *Onasi maqtagan qizni olma, el maqtagan qizni ol* deb talqin qilinadi. O'zbek xalqida esa bu maqol atrofdagi odamlarning fikri orqali insonning xulqi va obro'sini aniqlashni tavsiya etadi, onaning subyektiv maqtoviga tayanib qaror qabul qilmaslik kerakligini eslatadi. Shu bilan birga, har doim shaxsiy baho va uzoq muddatli muvofiqlikni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. *Fall though heaven let justice be done* (Osmon uzulib tushsa ham, adolat o'rnatilsin), o'zb.: *Adolat qilichi kesgan qo'l og'rimas* maqolida ham adolat va haqiqat tushunchasi ilgari surilgan. Ushbu maqolda adolatning oliy qadriyatligi, u qanday oqibatga olib kelishidan qat'iy nazar, yuzaga chiqishi kerakligi namoyon bo'ladi. Osmonning uzilib tushishini tasavvur qilolmaymiz, ammo bu maqolda adolatning so'zsiz ustuvorligini ta'kidlash uchun qo'llangan.

Keltirilgan ingliz maqoli falsafiy-huquqiy maqol hisoblanib, insoniyat tarixida ahloqiy prinsiplarning eng ta'sirchan ifodalaridan biri hisoblanadi. O'zbek maqolida agar jazoni adolat bersa, u qiyin bo'lsa ham qabul qilinishi ta'kidlanadi. Adolatli hukm odamni og'ir ahvolga solishi mumkin, ammo u haq va haqiqat bo'lganligi uchun ruhiy og'riq qoldirmaydi. Bu maqolda obrazlilik kuchli tasvirlangan. Qilich bu kuch, hukm va jazoni tasvirlaydi. Adolatni qilich misolida ko'rsatilgan. Ushbu maqol insonlarni adolatli hukm chiqarishga, u og'ir bo'lsa ham tan olishga chorlaydi.

O'zbek oilasini bolasiz tasavvur qilish juda ham qiyin. Fikrimiz dalili sifatida *Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor* maqolini keltirib otishimiz mumkin. Ushbu maqol o'zbek xalq og'zaki ijodining yaqool namayondalaridan biridir. Ushbu maqolda bolalarning uydagi o'rnini va ahamiyati, shuningdek, oilaning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi bolalarning roli haqida fikrlar ifodalangan. Maqoldagi *bolali uy* jumlasini, oilaning mehr-muruvvat va baxt manbai ekanligini ko'rsatadi. Bolalar xonadonning jonli va shodlik keltiruvchi elementlari sifatida qaraladi. Bozor so'zi iqtisodiy jihatdan o'zaro munosabatlarni anglatadi. Bu o'z navbatida bolalarning mehnat va yangi avlod sifatida yuksak qadrlanishi kerakligini ko'rsatadi. *Bolasiz uy mozor* jumlasini, bolalar bo'lmaganda uy hayotining qanchalik tushkun va g'ayritabiiy bo'lishini ta'kidlaydi. Bu, shuningdek, oilalarda bolalarning ta'limi va tarbiyasi uchun muhimligini anglatuvchi bir ifodadir. Maqol xalq og'zaki ijodi orqali avloddan avlodga o'tgan. Ushbu maqol o'zbek xalqining bolalar va oilaga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. O'zbek xalqida mehnat qadriyatlari hamisha yuqori baxoga ega bo'lib kelgan. Mehnat va uning muhimligi, ma'naviyati, hamda inson hayotidagi o'rnini haqida ko'plab maqollar, hikmatlar va urf-odatlar mavjud. O'zbek xalqida mehnat boshlanishi va bitishi orasida sabr va qat'iyat talab etiladi. Mehnat oila uchun ham katta ahamiyatga ega. Har bir oila a'zosi o'z hissasini qo'shib, hayotni yanada yaxshilashga harakat qiladi. Oilaviy mehnat, bir-birini qo'llab-quvvatlash va birgalikda maqsadlarga erishish xalqimizda muhim qadriyatlardan biridir. Mehnat millat ravnaqida katta rol o'ynaydi. Har bir inson o'z mehnati orqali millat taraqqiyotiga hissa qo'shadi va o'zining jamiyatdagi o'rnini his qiladi. O'zbek xalqida mehnat qadriyatlari o'zining tarixiy ildizlari bilan birgalikda bugun ham davom etmoqda. Mehnat, ijtimoiy hayotda nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham qadrlanadi. Bu qadriyatlar xalqni birlashtirishga va uning rivojlanishiga xizmat qiladi. Mehnat haqida so'z borganda o'zbek xalqida doim tilga olinadigan *Mehnat, mehnatning tagi rohat* maqoli alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqol, o'zbek xalqining mehnatga bo'lgan nisbati va uning ahamiyatini ta'kidlaydi. Maqolda "mehnat" so'zi ikki marta takrorlanishi uning muhimligini ta'kidlaydi. Bu, mehnat qilish jarayonining o'zini, uning qiyinchiliklari va natijalarini anglatadi. Mehnat qilish orqali inson rohatlanadi, ya'ni o'z mehnati natijasida erishgan yutuqlardan va farovonlikdan bahramand bo'ladi. Maqolda mehnatning zaif tomonlari e'tirof etilayotganligi ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev, M. (2016). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. G‘aniyeva, D. (2018). Semantika nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Jo‘rayev, M. (2020). Qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o‘rni. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
4. Qurbonova, Z. (2019). “Maqollarda milliy va umuminsoniylik qadriyatlarning ifodalanishi.” O‘zbek tili va adabiyoti,
5. Abdullayev, X. (2001). O‘zbek xalq maqollari va ularning semantic tahlili. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Hall, E.T. (1976). Beyond Culture. New York: Anchor Books.